

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MEHNATSEVARLIKKA O'RGATISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI

Turdimurodova Sitora

JDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6626529>

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas tuganmas hazinadir. Xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas tuganmas hazina bo'lib uning ahamiyati benihoya kattadir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka o'rgatishda maqollardan foydalanishning mazmuni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: ilmiy bilimlar, falsafiy, ahloqiy, huquqiy, estetik, badiiy g'oya va ideallar yig'indisi, xalq ma'naviy merosi, qo'shiqlari, maqollari, xikmatli so'zlari, termalari, laparlari, matallari, she'riyati millatning ma'naviy qadriyatlar

Insoniyatning, millatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy, ahloqiy, huquqiy, estetik, badiiy g'oya va ideallar yig'indisi, xalq ma'naviy merosi, qo'shiqlari, maqollari, xikmatli so'zlari, termalari, laparlari, matallari, she'riyati millatning ma'naviy qadriyatlaridir. Ma'nan, axloqan, ruhan barkamol inson o'z Vatani, xalqi oldidagi burch va mas'uliyatini teran anglab yetadi, xalqi uchun, uning moddiy va ma'naviy madaniyati kelajagi uchun qayg'uradi. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, ota-bobolarimiz azal-azaldan inson tarbiyasi masalalariga jiddiy e'tibor berib kelishgan va bu an'ana avloddan-avlodga ko'chib, takomillashib, yangicha usullar evaziga boyib borgan. Zotan, inson ma'naviyati tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas tuganmas hazina bo'lib uning ahamiyati benihoya kattadir. Xalq og'zaki ijodi hayot sinovlaridan o'tgan. Xalqning ma'naviy boyligi, madaniyatini ko'rsatuvchi insonlarning birdan-bir eng jozibali tarbiya vositasi maqoldir. O'zbek xalqi bolalarni tarbiyalash sohasidagi g'oyalari, tajribalarini yo'llari, usul va choralari o'zbek xalq pedagogikasida to'la-to'kis mujasamlashgandir. O'tmishi ulug' va kelajagi buyuk o'zbek xalqining ma'naviy va marifiy sarchashmasi bo'lgan ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar hamma zamonlarda e'zozlanganidek bizning davrimizda, ayni kunlarda o'z qadr qimmatini topmoqdi. Biz o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashimizda mehnat xaqidagi maqollardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq.

Misol tariqasida quyidagi “Birni kessang, o’nni ek” maqolini o’quvchilarga tushuntiradigan bo’lsak, xalqimiz bu va bu singari maqollar orqali yoshlarni mehnatsevarlikka, ko’chat ekish, bog’ yaratishga undaydi. Shu bilan birgalikda o’quvchilarda birovning mehnatining qadriga yetishga, boshqalar mehnatini qadrlashni o’rgatadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga bu maqolni tushuntirishda ota-bobolarimiz o’gitlaridan foydalanib tushuntirilishi yanada xam samaraliroq bo’ladi. Bu maqolni o’quvchilarga tushuntirishda bobomiz Amir Temurning amal qilgan sifatlaridan biri bo’lgan “Bitta daraxt kestirsam, o’rniga o’nta ko’chat ektirdim” so’zlaridan foydalanish mumkin. Bu bilan o’quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatning qadriga yetish kabi sifatlar bilan birgalikda ota-bobolarimizga bo’lgan xurmat xissini shakllantirishimiz mumkin.

Misol tariqasida “Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar” va “Mehnatdan kelsa boylik, Turmush bo’la chiroyli” maqollarini oladigan bo’lsak betartib, odobsiz, ishyoqmas o’quvchilarning misol tariqasida ilingan. Bu bilan keltirilgan ishyoqmas, odobsiz bolalarning ishi noto’g’ri ekanligi, mehnat qilish yaxshi fazilat ekanligi ta’kidlanadi. Bu esa o’quvchilarning to’g’ri xulosa chiqarib olishlariga imkoniyat yaratib beradi. Mehnatdan boylik kelishi, turmushi ham chiroyli bo’lishi talqin etiladi. Bu esa o’quvchilarni ham mehnatsevarlik ruhida tarbiya olishlariga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’quvchilarini yoshligidan mehnat intizomiga o’rgatish ularni kelajakda o’z kasbining moxir ustasi, yetuk kadr, jamiyat rivojiga munosib xissa qo’shadigan fuqaro bo’lib yetishida poydevor vazifasini o’taydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida Farmoyishi. 2001 yil, 18 yanvar.
- 2.Imomnazarov M. Eshmuhammedov M. “Milliy ma'naviyatimiz asoslari” T.”Yangi avlod”, 2001y.
3. Otamurodov S. va boshqalar. “Ma'naviyat asoslari” T.”Ma'naviyat”, 2002y.
4. Mahmudov T. “Mustaqillik va ma'naviyat”. T.”Ma'naviyat”, 2000y.